



UDK: 316.2 (5751)

Akmal ABDULLAYEV,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti dotsenti, Sotsiologiya fanlari doktori, DSc

E-mail: agabdullayev94@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori B.Karimov taqrizi asosida

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИДЕЙ ЭТАТИЗМА ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В СУФИЙСКОМ УЧЕНИИ

Аннотация

В статье анализируется формирование этатистских идей как новой формы государственного управления с приходом ислама в Среднюю Азию в VII-VIII вв., этатистские взгляды в суфийских учениях, таких как «Накшбандийа», «Яссавийа», «Кубровийа» и «Кадирийа», а также интерпретация этатистских структур в эпоху правления Сахибкрана Амира Темура и Темуридов с точки зрения западных учёных.

Ключевые слова: Этатические структуры, этические идеи, этатизм, этическое государство, суфизм, суфийское учение, тарикат, Накшбандия, Яссавия Кубровия, Кадирия, восточные мыслители, Западная Европа, Бахавуддин Накшбанд, Ходжа Убайдилла Ахрор, Ходжа Ахмед Яссави, Наджмуддин Кубро Сайед Абдул Кадир Джийлани.

INTERPRETATION OF THE IDEAS OF ETATISTIC STATE ADMINISTRATION IN SUFI TEACHINGS

Annotation

This article analyses the development of statist ideas as a new form of governance with the arrival of Islam in Central Asia in the VII-VIII th centuries, statist views in Sufi teachings such as Naqshbandiyya, Yassaviyya, Kubroviyya, and Qadiriyya, and the interpretation of statist structures during the reign of Sahibkiran Amir Temur and the Timurids from the perspective of Western scholars.

Key words: Etatic structures, ethical ideas, statism, ethical state, Sufism, Sufi teachings, tariqa, Naqshbandiyya, Yassaviyya Kubroviyya, Qadiriyya, Eastern thinkers, Western Europe, Bahavuddin Naqshband. Khoja Ubaidillah Akhror, Khoja Ahmed Yassawi, Najmuddin Kubro Sayyed Abdul Qadir Jiyilani.

DAVLAT BOSHQARUVIDAGI ETATIZM G'OYALARINING SUFIYLIK TA'LIMOTIDAGI TALQINI

Annotatsiya

Maqolada muallif VII-VIII aslarda Markaziy Osiyoga Islom dinining kirib kelishi bilan etatistik g'oyalarni yangi davlat boshqaruvi sifatida shakllantirishi, "Naqshbandiya", "Yassaviya", "Kubroviya" va "Qodiriya" kabi sufiylik ta'limotlarida hamda Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar saltanatidagi etatistik qarashlar, hamda etatik tuzilmalar talqinini G'arb olimlari nuqtayi nazaridan bildirgan fikrlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Etatik tuzilmalar, etatik g'oyalar, etatizm, etatik davlat, tasavvuf, sufiylik ta'limoti, tariqat, Naqshbandiya, Yassaviya Kubroviya, Qodiriya, Sharq mutafakkirlari, G'arbiy Yevropa, Bahovuddin Naqshband. Xoja Ubaydulloh Ahror, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro Sayid Abdulqodir Jiyloni.

Kirish. Davlat va jamiyatni boshqaruvda etatizm g'oyalari ham muhim o'rin egallaydi. Etatistik g'oyalarni davlat boshqaruvi tizimiga kiritish o'sha davlatning boshqaruvchilari qanday maqsadda qo'llanishiga qarab etatizm g'oyalari ijobiy yoki salbiy natijalarni berishi mumkin. Sharq davlatchilik tarixi shundan guvohlik beradi etatistik g'oyalarni to'g'ri qo'llanishi davlat boshqaruvini optimallashtirib, jamiyatni davlat bilan yanada yaqinlashtirib, davlat boshqaruvda jamiyat vakillarini ishtirok etishiga yo'l ochadi. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi turli ijtimoiy, siyosiy va huquqiy aloqalarni mustahkamlash uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Etatizm fransuzcha "étatisme" so'zidan olingan bo'lib, davlatparvarlik yoki davlatparastlik état esa davlat degan ma'nolarni anglatadi. Etatizm tushunchasi bir vaqtning o'zida ham ijobiy ham salbiy ma'nolarni anglatuvchi siyosiy atama bo'lib, etatizm atamasini qanday so'z iborasida qo'llanishiga qarab uning ijobiy yoki salbiy ma'no anglatishini bilish mumkin. Etatizmning ijobiy ma'nosi shundaki, agar jamiyat o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajara olmasa yoki lozim darajada bajarmasa, bunday funksiyalarni bajarish majburiyatini davlat o'z zimmasiga oladi va bu davlatning ijtimoiy siyosatiga aylanadi. Bunga misol qilib, davlat o'z fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishi, ijtimoiy qo'llab-

quvvatlashi, aholiga, tibbiy, ta'lim, bandlikka oid xizmatlarni ko'rsatishda ijtimoiy obyektlar xarajatlarni o'z zimmasiga olib, aholiga bepul xizmatlar ko'rsatishni tashkil qiladi, tartibga soladi va nazorat qiladi.

Sotsiologiya fani pozitiv fandir shu sababdan biz etatizm g'oyasini pozitiv izohlaydigan bo'lsak, etatik davlatda barcha ijtimoiy va huquqiy normalar fuqarolarning jamoaviy ongida bir xilda namoyon bo'ladigan umumiy axloqiy tamoyillar va qadriyatlarini aks ettiradi. Bu jamiyatning o'zi ichidan kichik jamiyatlarga bo'linib ketishini oldini oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Etatik tuzilmalarning faoliyatiga xos jihatlarni A.Saidov, U.Tadjixanov va X.Odilqoriyevlar tomonidan "Davlat va huquq asoslari" nomli darslikda huquqshunoslik nuqtayi nazaridan ta'rif berilgan. G'arbiy Yevropada "Etatizm" atamasiga siyosatshunoslik fani nuqtayi nazaridan A.Myuller «Элементы государственного искусства» asarida ta'riflagan. Etatizm g'oyalarini Turkiya Respublikasida qo'llanilganligi haqida Nas Tavfiq tomonidan va Obikon Memetlar tomonidan «Economics and Politics of Turkish Liberalization» nomli maqolasida keltirib o'tgan. Shuningdek, tasavvuf allomalaridan Bahovuddin Naqshband. Xoja Ubaydilloh Ahror, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro Sayid Abdulqodir Jiyloniyarning tasavvuf ta'limotlarida,

Amir Temurning "Temur Tuzuklari"da etatik g'oyalarni davlat boshqaruviga joriy qilinganligi haqidagi manbalarni sotsiologik tahlil qilish orqali etatizm g'oyalari mazmun va mohiyatini ochib berish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruviga etatik g'oyalarni kiritilishini qiyosiy sotsiologiya, retrospektiv va qiyosiy tarixiy usullari bilan tahlil qilish turli mamlakatlarda yoki tarixiy davrlarning turli vaqt diapazonlarida davlat va huquqning rivojlanishidagi ba'zi umumiy qonuniyatlar, mos keladigan va mos kelmaydigan xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Etatik tuzilmalarning faoliyatiga xos jihat shundaki, barcha fuqarolar va ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlari majburiy va so'zsiz rioya etishi hamda bajarishi shart bo'lgan qat'iy buyruq va farmoyishlar orqali jamiyatni boshqarishdir. Bundan tashqari, mazkur subyektlarning erkinligi va mustaqilligi, davlatga nisbatan avtonomligi maksimal darajada cheklangan bo'ladi. Davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning shaxsiy hayoti sohasini o'zining bevosita boshqaruvi va qaramog'iga olishga haddan tashqari intilishi kuchaygan bo'ladi. Shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining o'rni, nafaqat qonunning aniq va barqaror qoidalariga, balki ular kundalik hayotda ko'proq to'qnashib turadigan davlat organlari va mansabdor shaxslarning subyektiv fikriga ham bog'liq bo'ladi [1].

G'arbiy Yevropada "Etatizm" atamasi dastlab XIX asrning 80-yillarda Fransiyada qo'llanila boshlangan. Etatizmi g'oyasining siyosiy asoslari esa XIX asrning birinchi yarmida shakllangan. Bu g'oya asosan klassik siyosiy iqtisod vakillarining asarlarida belgilangan liberalizm dasturiga javob sifatida kiritilgan edi. Bu davrdagi fransuz olimlari liberal kapitalistik iqtisodiy determinizm bilan davlatning quyidagi tamoyillarini qarama-qarshi qo'ygan:

siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy jarayonlarda, shuningdek, qonun ijodkorligi sohasida davlatning hukmron roli;

davlat taraqqiyot manbai;
jamiyatning adolatli o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining yo'qligi sababli ijtimoiy hayotning barcha sohalariga faol ta'sir ko'rsatish zarurati;
paternalizm;

davlat intervensionizmi ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish siyosati. Shu munosabat bilan, konservativ yo'naltirilgan fransuz siyosatchilari etatizmga sotsializm g'oyasini elementlarini kiritib, bu etatizm konsepsiyasiga turli axloqiy, ijtimoiy va huquqiy normalarni kiritadilar. Davlat, ularning fikricha, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish va inqilobning oldini olish uchun iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishni o'z zimmasiga olishi kerak [2].

Etatik davlatning asosiy belgisi bu – odamlarni bir jamiyatga birlashtiruvchi va barqaror ijtimoiy tuzum uchun asos yaratadigan yagona umum axloqiy normalar yaratishga intiladi. Bunday davlatda fuqarolar davlat tomonidan eng to'g'ri deb topilgan axloqiy, ijtimoiy va huquqiy normalarga muvofiq yashashlari, ularning xulq-atvori butun jamiyatning umumiy manfaatlariga va maqsadlariga mos kelishidir. Etatizm g'oyalarining eng muhim jihati shundaki, har qanday etatik g'oyalar qachonki, shovinistik, millatchilik, fundamentalistik, fanatizm, radikalizm, terrorizm, aqidaparastlik, imperialistik g'oyalardan holi bo'lganda va bu g'oyaning asosiy maqsadi jamiyatning va davlatning bir butunligini asrab qolish, mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, xalqni, millatni va jamiyatni ma'naviy rivojlantirish, shaxsni kamol topishi va farovon turmush tarzini barpo etish, tolerantlik va bag'rikenglikni shakllantirish hamda ilm va ma'rifatni targ'ib qilish bo'lsagina bu g'oya etatik g'oya bo'ladi.

Yevrosiyo davlatlaridan Turkiya davlatchilik tarixida etatik g'oyalar davlat siyosatiga qabul qilinganligi keltirib o'tish mumkin. 1931-yilda Turkiya Respublikasida Kamol Otaturk tomonidan davlatning siyosiy darajasida etatizm g'oyasi qabul qilingan va 1937-yilda Turkiya Respublikasining Xalq partiyasi dasturiga va Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasiga rasmiy iqtisodiy doktrina sifatida kiritilgan. Turkiyaning etatistik siyosati Turkiyaga milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga erishishga imkon bergan. 1939-1945-yilgi Ikkinchi jahon urushidan so'ng, katta burjuaniy toбора kuchayib borayotgan ta'siri tufayli Turkiya hukumati etatizm siyosatidan uzoqlashib, etatistika ta'limotini "Aralash iqtisodiyot" nazariyasi bilan almashtirildi. 1960-yillarda esa "Yangi etatizm" shiori mamlakatda yana ilgari surilgan. "Yangi etatizm" g'oyasi quyidagi tamoyillarini o'z ichiga davlatning jamiyat hayotga aralashib turishi lozimligini jamiyat va uni boshqarishda davlatning iqtisodiy va ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshirilishi va siyosatshunoslar va sotsiologlar davlat va xususiy hayotining barcha sohalariga faol aralashuvini ma'qullashi va ijtimoiy rivojlanish uchun davlatni eng yuqori natija deb hisoblashi lozim edi [3].

Etatizm g'oyasi G'arbda bo'lgani kabi bu g'oya Sharqda ham hatto G'arbdan oldinroq ham mavjud bo'lgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki Sharqdagi pozitiv etatik g'oyalar G'arbdan ming yillar oldin mavjud bo'lgan. Shu sababdan aytish mumkinki, G'arbdagi har qanday ijtimoiy, siyosiy va huquqiy g'oyalarining ilk boshlanishi Sharqda bo'lgan. Shuni ham aytish lozimki, G'arb olimlari ko'p savollariga G'arbdagi kitoblaridan javob topa olmaganliklari sababli Sharq allomalarining kitoblariga murojaat etish orqali ko'plab masalalarga javob topganlar va "Nur Sharqdan", lotinchada «lucem orientalem» yoki «Ex oriente lux», ingliz tilida esa «light from the East» deb, o'z asarlarida e'tirof etganlar ham bejizga emas.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoga Islom dinining kirib kelishi davlat boshqaruvida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berib, etatik tuzilmalar bilan davlat boshqaruvi yanada kengaygan deb hisoblash mumkin. Islom dinida kambag'allarga va muhtojlarga "Sadaqa" ya'ni moliyaviy yoki iqtisodiy yordam berishni targ'ib qiluvchi din ekanligi hammaga ma'lum. Islomda sadaqa berish bir muncha boshqacha amalga oshiriladi. Aynan zakot masalasi ham davlatning maxsus tuzilmalari tomonidan tartibga solingan. Islomdagi besh farz ya'ni musulmon bo'lish uchun doimiy bajarishi lozim bo'lgan ilohiy buyruqning to'rtinchisi zakot deb nomlanadi» [4]. Islom dini Sharq mamlakatlariga kirib kelgandan so'ng bunday tartiblar dastlab diniy qoidalar sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik VIII asrlarga kelib, shariat qonunlari davlat qonunlari darajasida qabul qilinganligi bois, Zakot, xiroj, ushr, fitr sadaqa kabi moliyaviy va iqtisodiy yordamlar davlat tomonidan fuqarolarga qo'yilgan qonuniy talablar sifatida amaliyotga tatbiq etilgan.

Etatik davlat boshqaruvida doir masalalarni tadqiq qilishda musulmonlar yashaydigan o'lkalarda keng tarqalgan tasavvuf ilmiga ham murojaat qilish etatik g'oyalarni yanada teranroq anglash imkonini beradi. Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Pokiston, shimoli-g'arbiy Xitoy, Indoneziya kabi mamlakatlarga keng tarqalgan Bahovuddin Naqshbandning "Naqshbandiya", Ahmad Yassaviyning "Yassaviya" va Najmiddin Kubroning "Kubroviya" va Sayid Abdulqodir Jiloloniyning "Qodiriya" nomlari bilan mashhur bo'lgan sufiylik ta'limotlarida tarkidunyochilik, moddiy olam boyliklaridan va rohatlaridan voz kechish orqali Allohning vasliga yetishish maqsadida o'z qo'l mehnati bilan yashash, ortiqcha boylik to'plamaslik va ixtiyoriy ravishdagi oddiy hayot tarzini tanlash orqali umr o'tkazish tasavvuf vakillarining asosiy turmush tarzi bo'lib kelgan.

Mana shu tasavvuf ta'limotlarida etatik g'oyalar xos bo'lgan davlatni qo'llab-quvvatlash, o'z vatanini sevis va jamiyatdagi aholini ehtiyojmand qatlamlarini himoya qilish va qo'llab quvvatlashga doir ko'plab ko'rsatmalarni ham uchratish mumkin. "Naqshbandiya" tariqati Hazrati Bahovuddin Naqshbandning «Dilba yoru dastba kor (Qalbing Xudoda qo'ling ishda bo'lsin)» degan pur ma'noli shiori mashhurdir. Naqshbandiyaning vafotidan keyin bu tariqatning nufuzi bir muncha ortib, bu tariqatga ergashgan muridlar soni kundan-kunga ortib borgan. Ba'zi tariqat pirlarining obro'si oshib, tariqatning tamoyillaridan biri bo'lgan davlat va siyosat ishlariga aralashmaslik, sultonlar va xonlarning suhbatida bo'lmaslik, faqat xalq ichida bo'lish kabi tamoyillar bir muncha sustroq e'tibor bera boshladilar. Biroq, "Hojagon-Naqshbandiya tariqatining birinchi murshidi bo'lgan Xoja Abu Xoliq G'ijduvoniyni hukmdorlar bilan bo'ladigan har qanday muloqotini keskin rad etgan. Uning fikricha, sufiyning siyosatga aralashuvi unda davlat xirsini uyg'otadi. U kishi «Odamlar sherlardan qo'rqqani kabi ularning sultonlaridan ham qo'rqing, sultonlar bilan bir davrda o'tirmang, bu din va (sufiylik) tariqatini susaytiradi», deb vasiyatnomasida ta'kidlagan [5]. Naqshbandiya tariqatining XV asrdagi mashhur vakili bo'lgan Xoja Ubaydulloh Ahror sufiy shayxlarning siyosatga aralashish zaruriyati borligini shunday izohlagan edi: «Bizdan burungi shayxlar avomning tashvishlari bo'yicha amir va podshohlarga murojaat qilmaganlar. Biz esa buning bilan doimo mashg'ulmiz...Biz buni zarurat deb bilamiz [6].

Mashhur shayx Amir Kulolning o'g'li Amir Umar siyosatga nisbatan ancha ochiq munosabat bildirgan edi: «Bilgilkim, siyosat –tutib turish va tartibga solishdir, yomon kishilarni qo'rqinch va titroqda tutmoq, yaxshilarni taqdirlamoq kerak. Agar siyosat bo'lmasa davlatning muhim ishlari amalga oshmaydi; agar tartibot, jazo qonunlari bo'lmasa, davlatning ishlari ham o'nglanmaydi. Chunki davlat hukmdori, jamiyatning ko'rki, davlat va dinning rivojlanishini ta'minlash siyosatidir [6]. Xoja Ubaydilloh Ahror o'z siyosiy sabablari haqida shunday degan edi: "Zamon og'irlashdi Temuriyodalar o'rtaqidagi toj-taxt urushlari oqibatida siyosiy parokandalikning avj olganligi, xalq ahvolidan og'irlashganligi nazarda tutiladi, shuning uchun eng qulay ish hukmdorlar saroyida bo'lib, xalqqa va jabrdiydalarga yordam berishdir. Payg'ambarlar dinini ko'klarga ko'tarib, uning vositasida hukmdorlarga murojaat etmoq kerak, toki dinning ulug'ligi oldida ularning toju-taxti qadrsiz ekanligi namoyon bo'lsin" [7].

Bizningcha, bunday qarashlardan ko'zlangan bosh maqsad davlat boshqaruviga ijtimoiy masalalarga oid funksiyalarni kiritish edi. Bu etatik davlatga xos jihattir. Agar jamiyat o'zining ijtimoiy funksiyalarini davlatdan alohida xolda bajara olmasa, agar davlat ham bu funksiyalarni o'z zimmasiga olmasa, jamiyat hayotida ijtimoiy inqiroz yuzga kelishini anglagan tasavvuf vakillari davlat ishlariga va siyosatiga kirib borish orqali etatistik g'oyalarni davlat siyosatiga kiritishni yo'llarini axtarganlar va ma'lum ma'noda ular o'z maqsadlariga erishganlar.

Naqshbandiya shayxlarining asosiy g'oyasi "Shayx-shariat himoyachisi, unga nisbatan ko'rsatilgan qarshilik-shariatga nisbatan qarshilikdir", degan qoidada o'z ifodasini topgan edi. Xo'ja Ahror tomonidan ilgari surilgan siyosiy g'oyalar mamlakatda tamg'a solig'ini bekor qilishga, davlat soliqlarini tartibga solishga, ijtimoiy rejalarini amalga oshirishga olib keldi. Shuningdek, uning g'oyasi shariat asosida davlat tartibotini o'rnatishga asoslangan edi. Bu g'oya hukmdor va unga bo'ysunuvchi avom xalqning Ollohu Taolo oldidagi burchi, barcha musulmonlarni etnik kelib chiqishi, qayerda yashashidan qat'iy nazar, hamjihat bo'lishi lozimligi to'g'risidagi umum islomiy g'oyalar asosida shakllangan edi. Shunday qilib, XV asr boshlarida Xo'ja Ahrorning faoliyatida

sufiy shayxlarga xos bo'lmagan siyosiy yo'l boshchilik xos xususiyatlarni ko'rish mumkin edi. Bu — tasavvufning siyosiylashuvi jarayonining boshlanishi ham edi [Valixo'jayev B:45. [8].

Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asarida ham kambag'allarga g'aribu-miskinlarga beva-bechoralarga yordam berish, ularga mehr ko'rsatish, bir so'z bilan aytganda aholini ijtimoiy himoya qilishga doir ko'rsatmalari, nasihatlari mavjud bo'lib, ammo bu ta'limot siyosiy boshqaruv va davlatning ijtimoiy siyosati bo'lsin degan qat'iy talabi ham qo'yilmagan. Yassaviyning g'azal usulida yozilgan hikmatlari umumiy ko'rsatmalar bo'lib, bu ta'limotlar barchaga qarta aytilgan yordam berish ularga mehr shafqat ko'rsatishga chaqirgan [9].

Shayx Najmiddin Kubroning Kubroviya tariqatida ham insonning nafsga berilishi, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham molu-davlat to'plab boy bo'lish uchun insonni bezab turgan axloqiy fazilatlaridan o'zini-o'zi mahrum qilishi qat'iy qoralangan. Kubroviya tariqatining e'tiborli jihati shundaki, bu tariqatga ergashgan muridlarda jamoaviy birlik, ijtimoiy hamjihatlik bilan tariqat arqonini mahkam ushlaganlar. Ular bir mustahkam ijtimoiy guruh bo'lib, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, Vatanni sevis, zarur bo'lganda Vatanni dushmandan himoya qilish kabi ezgu ishlarni targ'ib qilgan. Mo'g'ullar istilosi davrida Shayx Najmiddin Kubro boshchiligidagi kubroviya tariqatiga ergashganlar Jaloliddin Manguberdi bilan bir safda turib vatanni himoya qilishda ko'rsatgan jasoratlarini bu tariqatning naqadar vatanparvar sufiylik yo'nalishi bo'lganini tasdiqlaydi.

Sayid Abdulqodir Jiloniyni "Qodiriya" sulukining shiori dunyodan forig' bo'lib, oxirat ishiga mashg'ul bo'lish emas, balki mashg'ullik bilan forig'lanishdir. Inson moddiy noz-ne'mat yaratishi kerak, busiz hayot to'xtab qoladi. Ammo inson o'zi yaratgan mol-dunyoga mehr qo'ymasligi, ya'ni dunyo hirsidan forig'langan holda dunyo ishiga mashg'ul bo'lishi kerak. Bahouddin Naqshband hazratlari ham «Dil ba yoru dast ba kor» shiorini targ'ib qilishda hazrat G'avsul A'zam sulukiga suyangandir [11].

Sayid Abdulqodir Jiloniyni "Qodiriya" suluki ham siyosiy boshqaruv so'fiylik ta'limoti bo'lgan. Ammo u kishining avliyolik karomatlarini ko'rgan, eshitgan va xabardor bo'lganlar beixtiyor bu kishiga muridlikka ergashib qo'l bergan. Masalning ahamiyatli tomonida shundaki, Qodiriya ta'limoti ergashuvchilari o'zlari xohlab davlat ishlariga aralashmagan. Aksincha o'sha davrdagi sultonlar va davlat amaldorlari Jiloniyni valiylik darajasiga ergashganliklari va u kishini duolari qabul bo'lib, shu zahotiyoq natijasini ko'rganliklari sababli sultonlar bu hazratga yaqin bo'lishni istaganlar. Davlat ishlarini tashkil qilish, davlat va jamiyat boshqaruviga doir islohotlarni Jiloniyni maslahati va ko'rsatmalari bilan amalga oshirganlar. Shu sababdan Sharqning davlat boshqaruviga oid sotsiologik ta'limotlari orasida Jiloniyni «Al-G'uniyatun li tolibi tariqil haq» (Haq yo'lini istovchi uchun boy va mukammal manba), «Futuh al-g'oyb», «al-Fath arrabboniy», «Sir al-asror», «al-dalai al-Qodiriya», «al-Hadiqot almustafaviya», «al-Hujjat al-bayzo», «ar-Risalatu al-g'avsiya», «Umdat al-solihin fi tarjimai g'uniyati as-solihin», «al-Fuyuzot ar-rabboniya fiy alma'sari va al-avrod al-qodiriya» va «Bashair al-xayrot» asarlari muhim o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, etatik tuzilmalar davlat boshqaruvida vujudga kelishi bevosita jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Davlatdan alohida bo'lgan jamiyat o'zini boshqarish, jamiyat a'zolarini eng zaruriy ehtiyojlarini qondirish, ularni ijtimoiy va huquqiy himoya qilishda jamiyat boshqaruvchilari o'z funksiyalarini bajara olmasligi sababidan bunday funksiyalarni davlat o'z zimmasiga olishi etatik tuzilmalar tushunchasini beradi. Shuningdek, G'arb olimlari

tomonidan etatistik g'oyalarni ijobiy va salbiy g'oyalar deb, olimlarning qarashlari ikki guruhga bo'lingan. Ijobiy etatistik g'oyalar insonlarni birlashtirish, ijtimoiy hamjihatlik, jamiyat a'zolari har qanday xavf va xatarlardan himoya qilishda birlashish, jamiyatga nisbatan otalikka yoki vasiylikka oling holat deb baholash mumkin. Salbiy etatika esa davlatni jamiyat ishlariga haddan ortiq aralashuvi, hukmdorlar o'z taxtalarini uzoq vaqt saqlab qolishlari uchun jamiyatni shunga majburlash, erkin iqtisodiyotni rivojlanishdan to'xtatish kabi

bora-bora totalitarizmga olib boruvchi yo'l deb tushunilgan. G'arbiy Yevropada XVIII asrlarda ilmiy iste'molga kiritilgan etatistik g'oyalar esa davlatning jamiyat ishlariga haddan ortiq aralashuvi deb tushunilgan. Ammo Turkiya, Sobiq SSSR, Fashistlar Germaniyasi kabi davlatlarida etatik g'oyalar davlat boshqaruviga to'liq singdirilgan. Etatik g'oyalar ushbu davlatlarning ba'zilarida ijobiy natija bergan bo'lsa, ba'zilarida rivojlanishni susaytirgan degan xulosa kelingan.

ADABIYOTLAR

1. Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари: Дарслик. – Т.: Шарқ 2002. – Б.21.
2. Мюллер, А. Элементы государственного искусства / А. Мюллер. – СПб., 1809. – С.65; Штаммлер, Р. Закономерность правового порядка и народного хозяйства / Р. Штаммлер. Киев, 1904. – С.231.
3. Nas, Tevfik F.; Odekon, Mehmet. Economics and Politics of Turkish Liberalization (англ.). Lehigh University Press. 1992. – P.12.
4. Алимов У.Т. Хайр-эхсон фазилатлари. – Тошкент. Мавороуннахр. 2011. – Б.43-44.
5. Холмўминов Ж. Ҳақиқат асрорининг кашшофи // Жамият ва бошқарув дурнали, 2001. Тошкент. №3. – Б.28.
6. Зиёдов Ш. Калом таълимоти ва Абу Мансур ал-Мотуридий // Ислом, тарих ва маънавият. – Т.: А. Қодирий.–2000. – Б.47-49.60.
7. Муҳаммад Сиддиқ Рушдий ва унинг «Тазкират ул-авлиёи туркий» асари.–Т.:Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. – Б.28.
8. Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1994. – Б.45.
9. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Иброҳим Ҳаққуловнинг сўз бошиси. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – Б.31.
10. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. Тошкент.Мавороуннахр. 2009. – Б.108.
11. Рушдий, Муҳаммад Сиддиқ. Ғавс ал-Аъзам. Нашрга тайёрловчи Икромиддин Остонакулов. Т. Халқ мероси, 1992. – Б.92-93.